# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 28-may, № 104 (8727) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARIDA YANGI DAVR

**Ko‘ksaroy qarorgohida 27-may kuni Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.**



Mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omillar ko‘p. Ulardan biri uzoq-yaqin davlatlar bilan strategik aloqalarni mustahkamlashdir. Zero, bugun jahonda bir qoida qat’iy ishlaydi — hech bir mamlakat yakka o‘zi rivojlana olmaydi.

Yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyati bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Bir-birini qo‘llab-quvvatlash asosiga qurilayotgan bu munosabatlar muhim ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda mamlakatimizning ikki tomonlama munosabatlarda katta yutuqlarga erishayotgan hamkor davlatlari orasida Rossiya ham bor. Bu fikrni tasdiqlovchi raqamlarni ko‘plab misollarda keltirish mumkin. Xususan, davlatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi keyingi yillarda qariyb ikki yarim baravarga oshdi. Rossiya yurtimiz uchun eng katta eksport bozori bo‘lib qolmoqda.

Shu o‘rinda yana bir misol, Rossiya mamlakatimizda tashkil etilgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni bo‘yicha ham yetakchilar qatorida.

Mamlakatimizga Rossiya Federatsiyasi Prezidentining davlat tashrifi ko‘p qirrali hamkorlikning izchil va samarali davom etishida muhim ahamiyatga ega.

Qarorgoh oldidagi maydonda ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif qildi. Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a’zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning tor doiradagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari oliy martabali mehmonni samimiy qutlar ekan, Rossiya Prezidenti qayta saylanganidan so‘ng ilk xorijiy tashriflaridan birini aynan O‘zbekistonga amalga oshirayotganini alohida ta’kidladi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tashrifga tayyorgarlik doirasida parlament a’zolarining uchrashuvlari, siyosiy maslahatlashuvlar, “Innoprom” ko‘rgazmasi, ikki mamlakat yetakchi muhandislik-texnik oliy o‘quv yurtlari rektorlari va nufuzli tibbiyot muassasalari rahbarlarining anjumanlari samarali o‘tgani, Toshkentda Rus san’ati haftaligi tadbirlari davom etayotgani ta’kidlandi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning o‘sib borayotgan sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va Rossiyadan investitsiyalar hajmi ko‘paymoqda, sanoat kooperatsiyasi rivojlanmoqda.

Yetakchi korxonalarning qo‘shma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qo‘shma investitsiya platformasini ishga tushirish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Prezidentlar hududlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligini ta’kidladilar.

Shuningdek, yetakchilar energetika, shu jumladan, atom energetikasi, qishloq xo‘jaligi, innovatsiyalar, migratsiya, xavfsizlik va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalarini atroflicha muhokama qildilar.

Ko‘p qirrali madaniy-gumanitar almashinuv rivojlanayotganiga yuqori baho berildi.

Ta’lim va muhandis kadrlarni tayyorlash sohalaridagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi.

Davlat rahbarlari tomonlarni qiziqtirgan mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin muzokaralarni rasmiy delegatsiyalar ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Muzokaralarda O‘zbekiston bilan Rossiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari batafsil muhokama qilindi.

Ikki tomonlama munosabatlarning hozirgi yuksak darajasi va o‘ziga xosligi, davlatlararo hamkorlikning barcha soha va yo‘nalishlarini qamrab olganligi mamnuniyat bilan ta’kidlandi.

— Sizning davlat tashrifingizni haqli ravishda tarixiy deb atash mumkin. Bu tashrif mamlakatlarimiz o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarida yangi bosqichni boshlab bermoqda, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar, hududlar, jamoatchilik, ekspertlar va ishbilarmon doiralar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar.

Bu maqsadda Bosh vazirlar darajasidagi Qo‘shma komissiya va Hukumatlararo komissiyaning imkoniyatlaridan to‘liq foydalaniladi, ularning navbatdagi yig‘ilishlari shu yil oxirigacha o‘tkaziladi.

Shuningdek, muntazam siyosiy maslahatlashuvlarni, BMT, MDH, SHHT kabi xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar hamda boshqa ko‘p tomonlama platformalar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.

O‘zaro savdo aylanmasining barqaror sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi. So‘nggi 7 yilda u 2,5 barobar oshdi. Tomonlar yangi maqsadli ko‘rsatkichga — yaqin istiqbolda savdo hajmini 30 milliard dollarga yetkazishga kelishib oldilar.

Ushbu vazifani amalga oshirishga ko‘maklashish uchun Rossiyada O‘zbekistonning to‘laqonli savdo vakolatxonasi tashkil etiladi.

Bugungi sammitga energetika, metallurgiya, neft-kimyo, mashinasozlik, tog‘-kon sanoati, qishloq xo‘jaligi, logistika, farmatsevtika, sun’iy intellekt va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarda 20 milliard dollardan ortiq qiymatda yangi sanoat kooperatsiyasi loyihalari tayyorlandi.

Bu kabi loyihalarni ilgari surish uchun qo‘shma Investitsiya platformasi ishga tushiriladi.

Energetika sohasida gaz tashish tizimini modernizatsiya qilish, gaz, neft va neft mahsulotlari yetkazib berish hajmini oshirish, uglevodorodlarni qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlik ham jadal rivojlanib borayotgani alohida ta’kidlandi. O‘tgan hafta O‘zbekistonning barcha hududlari rahbarlari tashrif bilan Rossiyada bo‘ldilar.

Oziq-ovqat xavfsizligi, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, migratsiya kabi qator muhim yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqildi.

Madaniyat va san’at, fan, sog‘liqni saqlash, turizm, yoshlar va sport sohalarida faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Tomonlar O‘zbekistonda Bauman nomidagi Moskva texnika universiteti va Butunrossiya tashqi savdo akademiyasi filiallarini ochish bo‘yicha kelishuvlarga erishilganini olqishladilar.

Uchrashuv chog‘ida delegatsiya a’zolarining qisqa hisobotlari, turli sohalarda amaliy hamkorlik bo‘yicha aniq takliflari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari har bir yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirish mexanizmlari nazarda tutilgan “yo‘l xaritalari”ni qabul qilishga topshiriq berdilar.

O‘tkazilgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Davlat rahbarlari huzurida muhim ikki tomonlama bitimlarni almashish marosimi bo‘lib o‘tdi. Jumladan, bular:

— O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hamkorligining ustuvor yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasiga metrologiya sohasida texnik ko‘mak ko‘rsatish to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Birgalikda kino ishlab chiqarish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligini ta’minlash sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida hukumatlararo bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi o‘rtasida ilmiy texnologiyalar sohasida qo‘shma tanlovlar o‘tkazish to‘g‘risida bitim;

— Baliqchilik sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi hukumatlararo bitimga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida bayonnoma;

— 2024 — 2026-yillarga mo‘ljallangan madaniyat sohasida hamkorlik dasturi;

— 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan turistlar oqimini oshirish bo‘yicha hamkorlik dasturi;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida tovar ayirboshlashni ko‘paytirish maqsadida sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sanoat va savdo vazirligi o‘rtasida 2024 — 2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida o‘zaro savdo hajmini oshirish bo‘yicha ishchi guruh faoliyatining asosiy yo‘nalishlari rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Karantin va o‘simliklarni himoya qilish agentligi hamda Rossiya Federatsiyasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining Veterinariya va fitosanitariya nazorati bo‘yicha federal xizmati o‘rtasida fitosanitariya sohasida raqamli hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan karantin va o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Fan va oliy ta’lim vazirligi o‘rtasida “N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti” federal davlat budjet oliy ta’lim muassasasi filialini tashkil etish to‘g‘risida memorandum;

— O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘rtasida sog‘liqni saqlashni tashkil etish masalalari bo‘yicha; tibbiyot maqsadidagi dori vositalarini, tibbiy buyumlarni va yuqori texnologik davolash usullarini tartibga solish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomalar;

— O‘zbekiston Respublikasi hududida kam quvvatli atom elektr stansiyasini qurish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risidagi kelishuvlar;

— Toshkentda Butunrossiya tashqi savdo akademiyasining filialini ochish to‘g‘risida bitim;

— transport mashinasozligi, fuqarolik aviatsiyasi tizimlari sanoatini rivojlantirish, turizm almashinuvini oshirish, Toshkentda gumanitar loyihalarni amalga oshirish, agrologistika markazlari va zamonaviy kimyo quvvatlarini tashkil etish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida hujjatlar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Brifingda so‘zga chiqqan davlatimiz rahbari Vladimir Putinning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti lavozimiga qayta saylanganidan keyingi ilk xorijiy tashriflaridan biri bo‘lgan ushbu tashrifini O‘zbekistonga va ko‘p millatli xalqimizga bo‘lgan alohida munosabat va hurmatning, shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikning bugungi yuqori darajasi va O‘zbekiston — Rossiya munosabatlarini chuqurlashtirishga bo‘lgan qat’iy intilishning tasdig‘i sifatida qabul qilayotganini ta’kidladi.

➡ 2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

FARMONI

# OLIY VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI TALABALARI VA O‘QUVCHILARIGA BUDJET MABLAG‘LARI HISOBIDAN TA’LIM KREDITINI AJRATISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA

Oliy va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan Davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024/2025 o‘quv yilidan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan oliy va professional ta’lim tashkilotlarining talaba va o‘quvchilariga ta’lim kreditlari (keyingi o‘rinlarda — ta’lim krediti) ajratishning quyidagilarni nazarda tutuvchi tartibini joriy qilish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) oliy va professional ta’lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta’lim kreditini faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarga ajratish;

b) ta’lim kreditini:

oliy ta’lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun to‘lov-kontrakt summasi miqdorida;

oliy ta’lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun fanlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “3” dan past bo‘lgan taqdirda to‘lov-kontrakt summasining ko‘pi bilan 80 foizi miqdorida ajratish (“Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari bundan mustasno).

2. Belgilansinki:

a) ta’lim krediti:

oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun — talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Talabalarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish” (kontrakt.edu.uz) axborot tizimi va “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimida mavjud bo‘lganda;

professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun — o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish” (prof.edu.uz) axborot tizimida mavjud bo‘lganda ajratiladi;

b) o‘z dasturiy ta’minotiga ega bo‘lgan oliy va professional ta’lim tashkilotlari ta’lim kreditini olish uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlariga o‘z axborot tizimini integratsiya qilishi yoki ulardan foydalanishi majburiy hisoblanadi.

3. Quyidagilar:

a) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2024-yil 1-iyulga qadar tashkiliy-huquqiy shakli va idoraviy bo‘ysunuvidan qat’i nazar, barcha oliy va professional ta’lim tashkilotlarining to‘lov-kontrakt shartnomasi “kontrakt.edu.uz” va “prof.edu.uz” axborot tizimlari orqali shakllantirilishini;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi:

Raqamli texnologiyalar vazirligi Markaziy bank bilan birgalikda 2024/2025 o‘quv yili boshlangunga qadar ta’lim kreditini olish uchun arizalarni Iqtisodiyot va moliya vazirligining “Ta’lim krediti” axborot tizimi (ta’lim-krediti.mf.uz) va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali topshirish imkoniyati yaratilishini;

“Ta’lim krediti” axborot tizimi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlasin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 27-may

# O‘ZBEKISTON — ROSSIYA SAMMITI YAKUNLARI, HECH MUBOLAG‘ASIZ, IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK ISTIQBOLLARINI BELGILAB BERUVCHI TARIXIY VOQEADIR

*Joriy yilning 26-27-may kunlari bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi O‘zbekiston — Rossiya muzokaralarining samarali natijalari ikki davlatning ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirishga intilishini tasdiqladi va davlatlararo munosabatlarda yangi sahifa ochdi.*

*Xalqaro ekspertlar ta’kidiga ko‘ra mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarning bugungi kundagi yuksak darajasi,o‘ziga xos xususiyati va davlatlararo hamkorlikning barcha soha hamda yo‘nalishlarini qamrab olgani bilan ahamiyatli bo‘ldi.*

## Biz va jahon

**Maks SEY,**
**Malayziyaning “Kingsley Strategic Institute” tahlil markazi ijrochi direktori:**

— Rossiya Prezidentining Toshkentga tashrifi O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi yuksak ishonch hamda o‘zaro anglashuv darajasi bilan ajralib turadigan ikki tomonlama munosabatlar mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi.

➡ 2

# O'ZBEKISTON VA ROSSIYA O'RTASIDAGI STRATEGIK SHERIKLIK VA ITTIFOQCHILIK MUNOSABATLARIDA YANGI DAVR

1

O'zbekiston Prezidenti mazkur sammitga katta tayyorgarlik ko'rilganini alohida ta'kidladi. Parlament vakillarining uchrashuvlari, siyosiy maslahatlashuvlar, ikki davlat hukumat delegatsiyalari o'rtasidagi o'zaro tashriflar samarali o'tdi.

Har doimgidek an'anaviy ochiq, konstruktiv va do'stona muhitda o'tgan bugungi muzokaralarning natijalari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yetakchilar ikki tomonlama kun tartibining barcha dolzarb masalalarini atroflicha muhokama qilib, delegatsiya a'zolarining asosiy yo'nalishlar bo'yicha hisobotlarini tingladilar, xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashdilar.

Savdo-iqtisodiy sohada amaliy hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Tomonlar tovar ayirboshlash hajmini yanada oshirish zarurligi borasida yakdil fikrga keldilar.

Davlatlar sanoat kooperatsiyasida jiddiy ilgarilagan. Muzokaralar davomida energetika, neft-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, logistika va innovatsion tarmoqlar bo'yicha aniq loyihalar ko'rib chiqildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda 3 mingdan ortiq qo'shma korxonalar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, loyihalar portfeli qariyb 45 milliard dollarni tashkil qiladi. Bu galgi tashrif doirasida 20 milliard dollarlik yangi loyihalar bo'yicha kelishuvlar imzolangani alohida ta'kidlandi.

Hududlararo hamkorlik O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi iqtisodiy va gumanitar hamkorligining haqiqiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib borayotgani alohida qayd etildi. Hududlar forumini Prezidentlar raisligidagi Hududlar kengashiga aylantirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Davlat rahbarlari energetika sohasidagi strategik hamkorlikni kuchaytirish masalasiga alohida to'xtalib o'tdilar.

O'tgan yili Rossiya tabiiy gazini O'zbekistonga yetkazib berish boshlangan edi. Muzokaralar davomida gaz, neft va neft mahsulotlarini yetkazib berish hajmini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va mahalliy korxonalar negizida uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Mamlakatimizda kam quvvatli atom elektr stansiyasi qurilishi bo'yicha loyihani amalga oshirish to'g'risida bitim imzolandi.

— Dunyodagi deyarli barcha yetakchi davlatlar o'z energetik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini atom energetikasi hisobiga ta'minlamoqda. Agar biz O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichiga chiqish istiqbollari haqida o'ylasak, katta miqdordagi uran zaxiralariga ega va uni uchinchi davlatlarga eksport qilayotgan mamlakatimiz uchun bu loyiha hayotiy ahamiyatga ega, — dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Joriy yilda O'zbekistonda Rossiyaning yirik madaniy tadbirlari, jumladan, kino kunlari o'tkaziladi. Rossiyada O'zbekiston madaniyati kunlari, ko'rgazmalar va teatrlarimizning ijodiy safarlari bo'lib o'tadi.

Prezidentlar ta'lim va sog'liqni saqlash sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish ahamiyatini qayd etdilar. Ikki mamlakat yetakchi universitetlari va tibbiyot muassasalari o'rtasida doimiy muloqot va samarali sheriklikni qo'llab-quvvatladilar.

Muhandislik kadrlarini tayyorlash bo'yicha qo'shma ishlar boshlandi. Bu maqsadda tashkil etilayotgan Toshkentdagi Nikolay Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti filiali mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan yetakchi Rossiya universitetlarining o'n beshinchisi bo'ladi.

Migratsiya sohasidagi hamkorlik masalalari muzokaralarning alohida mavzusi bo'ldi. Bu sohada o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlari bo'yicha kelishuvga erishildi.

Tashqi siyosiy idoralar o'rtasida muntazam maslahatlashuvlarni davom ettirish, mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida muloqotni chuqurlashtirish muhimligi tasdiqlandi.

An'anaviy va yangi tahdid va xatarlarga, birinchi navbatda, terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik va narkotrafikka qarshi kurashish bo'yicha vakolatli organlar va maxsus xizmatlar o'rtasida yaqin hamkorlik masalalari O'zbekiston va Rossiyaning diqqat markazida qoladi.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari muzokaralar natijalaridan mamnunligini bildirib, rossiyalik hamkasbiga o'zi bilan O'zbekistonga Rossiyaning asosiy vazirlik va idoralari, subyektlari rahbarlaridan iborat nufuzli delegatsiyani olib kelgani uchun minnatdorlik bildirdi.

Rossiya Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi davomidagi sermazmun uchrashuvlar va samarali natijalar ikki tomonlama do'stlik, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi, davlatlararo hamkorlik tarixida yangi bob ochishiga ishonch bildirildi.

Ko'ksaroy qarorgohidagi ikki tomonlama tadbirlar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin Faxriy mehmonlar xiyoboniga tashrif buyurdilar.

Bu yerda davlat rahbarlari O'zbekiston va Rossiya xalqlarining do'stligi, keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari mustahkamlanib borayotganining ramzi sifatida birgalikda daraxt ekdilar.

Xiyobonda boshqa hamkor davlatlar yetakchilari tomonidan ekilgan daraxtlar ham o'smoqda.

O'zbekiston — Rossiya sammiti doirasida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putin Toshkent shahridagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga tashrif buyurdilar.

Ko'p millatli xalqlarimiz ko'p asrlik umumiy tariximiz va uning yorqin sahifalari, jumladan, Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani alohida hurmat-e'tibor bilan yod etadilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida "Inson qadri uchun" tamoyili islohotlar dasturining mutlaq ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, o'zbekistonliklarning urush janggohlarida ko'rsatgan qahramonligi va front ortidagi fidokorona mehnatini abadiylashtirish uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2020-yil 9-mayda G'alaba bog'i ochildi.

Keng majmua bir nechta hududga bo'lingan bo'lib, har biri alohida mavzuga bag'ishlangan — urush dahshatlari va askarlar qahramonligi, front ortidagi ishchilar matonati va fidoyiligi, qayg'u va dard, shodlik va shukronalik.

Bu yerga tashrif davomida O'zbekiston va Rossiya Prezidentlari halok bo'lgan askarlarning xotirasini yodga oldilar va urush dastidan besh nafar o'g'lidan ayrilgan Zulfiya aya Zokirova xotirasiga o'rnatilgan "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydilar.

Majmuaning eng yuqori nuqtasi — sun'iy tepalik cho'qqisida "Abadiy jasorat" kompozitsiyasi — Sovet Ittifoqi Qahramoni, general-mayor Sobir Rahimov va Ikkinchi jahon urushida qatnashgan barcha o'zbekistonlik askarlar xotirasiga bag'ishlangan yodgorlik o'rnatilgan.

Tepalik ichida bog'ning asosiy pavilyoni — O'zbekistonning urushdagi ishtiroki tarixiga bag'ishlangan "Shon-sharaf" davlat muzeyi joylashgan.

Yetakchilar muzeyning boy ekspozitsiyasi bilan tanishib, shonli o'tmishimiz haqidagi xotirani asrab-avaylash muhimligini ta'kidladilar. Tarixiy merosni e'zozlash yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalash va xalqlar o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin tutishi alohida qayd etildi.

G'alaba bog'ining mahobati va salobati Rossiya delegatsiyasi a'zolarida katta taassurot qoldirdi.

Shu kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin raisligida O'zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi majlisi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash joizki, bu platforma olti yil avval ikki davlat rahbarlari tomonidan ishga tushirilgan bo'lib, qo'shma Hududlararo hamkorlik forumi shaklida faoliyat yuritgan.

Hududlararo hamkorlikning jadal sur'ati, o'zaro investitsiyalarning yuqori dinamikasi, qo'shma loyihalar soni, shuningdek, hamkorlik sohalarini kengaytirish uchun katta salohiyatni hisobga olib, forum maqomini oshirish va uni Prezidentlar raisligidagi O'zbekiston va Rossiya hududlari kengashiga aylantirishga qaror qilindi.

Kengash majlisini ochar ekan, davlatimiz rahbari Prezident Vladimir Putin va Rossiya delegatsiyasi vakillarini, jumladan, 30 ga yaqin hudud rahbarlari va 300 nafar yetakchi sanoat korxonalari, biznes vakillarini samimiy qutladi.

— Bunday hamkorlik yuqori samaradorlik bilan ajralib turadi, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi uzoq muddatli sheriklikni kengaytirishga xizmat qiladi, — deb ta'kidladi Prezidentimiz.

Oliy darajadagi muzokaralar samarali natijalar bilan yakunlangani, ikki davlat va xalqlar manfaatlari yo'lida keng qamrovli sheriklikni kengaytirish va mustahkamlashga bo'lgan umumiy intilishni ko'rsatgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Yil boshidan beri barcha darajadagi, jumladan, ikki davlat hududlari o'rtasidagi aloqalarning faollashgani alohida ta'kidlandi.

Shu ma'noda, hududlararo muloqotni yanada rivojlantirish va uni yangi amaliy mazmun bilan boyitishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Bugungi kunda hududlar darajasida 4 milliard dollarlik 200 dan ortiq qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. Kengash majlisi doirasida 5 milliard dollarlik yangi shartnomalar to'plami tayyorlangan.

Oliy darajadagi muzokaralar davomida tovar ayirboshlash hajmini yaqin yillarda 30 milliard dollarga yetkazish va kelasi yili 10 milliard dollar investitsiya o'zlashtirish bo'yicha yangi maqsadlar belgilab olingani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Maqsadlarga erishishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi aynan ikki davlat hududlari bo'lishi lozimligini ta'kidlagan davlatimiz rahbari hamkorlikning qator ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Avvalo, o'zaro savdoni ko'paytirish. So'nggi 7 yil ichida O'zbekistonning Rossiya bilan tovar ayirboshlash hajmi 2,5 barobarga o'sdi. O'zaro yetkazib berish tarkibi, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar hisobiga sifat jihatdan yaxshilandi.

Asosiy hamkorlar qatorida Moskva va Sankt-Peterburg shaharlari, Moskva, Leningrad, Novosibirsk, Astraxan, Ivanovo, Chelyabinsk viloyatlari, Krasnoyarsk, Perm o'lkalari, Tatariston, Boshqirdiston va boshqalar bor.

Kooperatsiya va import o'rnini bosish loyihalarini oshirish hisobiga tovar ayirboshlash hajmini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalari qabul qilindi, bu jarayonga hududlar faol jalb qilinadi.

Savdo va kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun Rossiyada O'zbekistonning to'laqonli savdo vakolatxonasi ochiladi.

Investitsiya va texnologiyalar sohasidagi hamkorlik sur'ati yuqori baholandi. O'zbekistonda uch mingdan ortiq Rossiya kompaniyalari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Energetika, kimyo va neft-kimyo, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, logistika, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda loyihalar amalga oshirilmoqda. Toshkent viloyatida tataristonlik hamkorlar bilan birga ishga tushirilgan "Ximgrad" sanoat zonasi kengaytirilmoqda, Jizzax viloyatida uning filiali barpo qilinmoqda.

Rossiya hududlarining yetakchi korxonalari bilan kooperatsiya loyihalarini ilgari surish uchun yangi qo'shma sanoat zonalarini tashkil etish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Qishloq xo'jaligi sohasida hamkorlikni kengaytirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tildi. O'zbekiston hududlarida agrologistika markazlari tarmog'ini kengaytirish ishlarini davom ettirish muhimligi ta'kidlandi.

Hududlarga Rossiyada ulgurji-taqsimlash markazlarini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini birgalikda yetishtirib, keyinchalik yurtimizga yetkazib berish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Madaniy hamkorlik bo'yicha uch yillik dastur qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidenti turizm almashinuvini kengaytirish muhimligini ta'kidladi. So'nggi bir necha yilda rossiyalik turistlar soni 5 barobarga oshdi. O'zbekiston va Rossiyaning barcha yirik shaharlari muntazam aviaqatnovlar bilan bog'langan.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston va Rossiyaning tarixiy shaharlariga turistik yo'nalishlar va sayohatlarni rivojlantirish bo'yicha yangi qo'shma dasturlarni qabul qilishni taklif etdi.

O'z navbatida, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin mamlakatimiz bilan ko'p qirrali munosabatlarning rivojlanishidagi ijobiy tendensiyalarni yuqori baholab, Rossiya va O'zbekiston hududlari o'rtasidagi mavjud ishbilarmonlik aloqalarini mustahkamlashning muhim ahamiyatini ta'kidladi. Ishbilarmon doira vakillarini qo'shma loyihalar va tashabbuslarni amalga oshirishda faol ishtirok etishga chaqirdi.

Majlis doirasida bir qator yangi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish boshlangani e'lon qilindi.

Umuman, kengash doirasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnik va gumanitar sohalarda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha hududlararo hamkorlik hujjatlari va bitimlar to'plami imzolandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**
**Ikrom AVVALBOYEV,**
**O'zA muxbirlari.**

# O'ZBEKISTON — ROSSIYA SAMMITI YAKUNLARI, HECH MUBOLAG'ASIZ, IKKI TOMONLAMA HAMKORLIK ISTIQBOLLARINI BELGILAB BERUVCHI TARIXIY VOQEADIR

1



Ikki davlat rahbarlarining tovar ayirboshlash hajmini oshirish, strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash va avval erishilgan kelishuvlar ijrosiga qaratilgan oliy darajadagi muzokaralari siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Mamlakatlar rahbarlari ishtirokida O'zbekiston va Rossiya hududlari kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazilishi alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, ushbu forumda qatnashish uchun Rossiyaning 18 nafar gubernatori Toshkentga keldi. Bunday yondashuv ikki davlat o'rtasidagi hududlararo hamkorlikni mustahkamlashdagi muvaffaqiyatlardan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, so'nggi yillarda O'zbekiston — Rossiya hamkorligi, xususan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarda sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarilganini alohida ta'kidlamoqchiman. Savdo aylanmasi va loyihalar soni muttasil oshib, korxonalar hamda hududlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik faollashdi. Xususan, 2023-yilda ikki davlat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada o'sdi va 10 milliard dollardan ko'paydi. Joriy yilning birinchi choragida bu ko'rsatkichlarning o'sishi davom etdi.

Aytish kerakki, sammit doirasida ikki tomonlama hujjatlar yangi paketining qabul qilingani va ularning amalga tatbiq etilishi, shubhasiz, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, ilmiy-gumanitar, transport va logistika sohasidagi hamkorlikni, shuningdek, ikki davlat aholisi turmush darajasini yanada oshirish va boshqa sohalardagi o'zaro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tashrif natijalari mamlakatlar o'rtasidagi sheriklik va do'stlik munosabatlarini yanada rivojlantirishga kuchli turtki berishiga hamda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hududlararo hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishiga ishonchim komil.

**Majed at-TURKIY,**
**Axborot va rus-arab tadqiqotlari markazi direktori (Saudiya Arabistoni):**



— Tashrif O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi sheriklik va strategik ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ushbu tashrif ikki davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yuksak darajasini tasdiqlaydi. Chunki bu Rossiya Prezidentining davlat rahbari etib qayta saylanganidan keyin, Xitoy va Belarusga tashriflari yakunlari bo'yicha xorijiy safarlarining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Tashrif 2005-yilda imzolangan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma va 2022-yilgi Keng qamrovli strategik sheriklik to'g'risidagi deklaratsiya doirasida bo'lib o'tdi. Bugungi kunda 370 dan ortiq hujjatlardan iborat mustahkam shartnomaviy-huquqiy baza o'zbek va rus xalqlarining taraqqiyoti hamda farovonligi yo'lida o'zaro manfaatli va ko'p qirrali sheriklikni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam ustun bo'layotir.

Ikki tomonlama asosda ham, xalqaro birlashmalar doirasida ham amalga oshirilayotgan O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning ahamiyati "Global Janub" tomonidan jahon muvozanatini saqlash va umumbashariy adolatli jamiyatga erishish uchun ko'p qutbli dunyoni barpo etish yo'lida olib borilayotgan xalqaro o'zgarishlar nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqilishi kerak.

Xalqaro kuzatuvchilar ta'kidiga ko'ra tashrif natijalari ikki tomonlama, hatto mintaqaviy doiradan ham oshib ketib, xalqaro miqyosda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Xolid MAHMUD,**
**Pokistonlik tadbirkor, "Novugen Pharma" kompaniyasi asoschisi:**

— E'tiborlisi, bu Rossiya rahbarining Prezident etib qayta saylanganidan so'ng Xitoy va Belarusdan keyingi uchinchi xorijiy tashrifi sanaladi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bu O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi alohida munosabatlardan dalolat beradi.

Ikki davlat o'rtasidagi izchil rivojlanayotgan iqtisodiy aloqalar nafaqat O'zbekiston va butun mintaqa, balki Pokiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Siyosatchilarimiz, ishbilarmonlarimiz ikki tomonlama uchrashuv va muzokaralarning borishini diqqat bilan kuzatishdi.

O'zbekiston nafaqat Pokistonning mintaqadagi strategik savdo-iqtisodiy hamkori, balki Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlarida mahsulotlarimizni ilgari surish bo'yicha tranzit mamlakat hamdir.

Shu bois biz O'zbekiston — Rossiya munosabatlarining yanada rivojlanishi va chuqurlashishini, ikki mamlakat o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini qo'llab-quvvatlaymiz.



O'zbekiston va Rossiya barcha darajada, jumladan, mintaqalararo darajada o'z orbitasiga tobora ko'proq yangi ishtirokchilarni jalb qilgan holda jadal va keng ko'lamli aloqalarni davom ettirmoqda. Shuningdek, mamlakatlar BMT, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa global hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida ham bir-birining tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlab kelayotir.

Sirdaryo viloyatida tashkil etilgan "Novugen Pharma" kompaniyamiz bir necha yildan buyon O'zbekiston farmatsevtika bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston — Rossiya savdo-iqtisodiy munosabatlari o'zbek tovarlari va xizmatlarini sotish uchun qanchalik muhim ekanini shaxsiy tajribamdan bilaman. Chunki kompaniyamiz O'zbekistonda ham faoliyat olib boradi. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimizning bir qismi Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlariga eksport qilinmoqda. Shuning uchun biz O'zbekiston rahbari va uning rossiyalik hamkasbi o'rtasidagi kelishuvlarga katta ahamiyat qaratamiz.

**Omid RAHIMIY,**
**Kavkaz va Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha ekspert, eronlik tahlilchi:**



— O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar strategik xususiyat kasb etayotir. Mamlakatlar Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Afg'onistonda barqarorlik va xavfsizlik sohasida umumiy manfaatlarga ega. Ikki davlat Markaziy Osiyoning janubiy chegaralari xavfsizligini kafolatlashi hamda uzoq muddatli strategiya doirasida Transafg'on yo'lagi kabi loyihalar orqali afg'on zaminida taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashi mumkin.

Qolaversa, Rossiya O'zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkori va ushbu mamlakat eng muhim eksport yo'nalishlaridan biri ekanligini unutmaslik kerak. 2023-yilda kuzatilgan og'ir iqtisodiy sharoitda O'zbekistonning Rossiyaga eksporti 5 foizga oshib, 3,3 milliard dollardan ziyodni tashkil qildi.

Ushbu ko'rsatkichlar ikki tomonlama munosabatlarda iqtisodiyotning muhimligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Shuningdek, O'zbekiston hukumatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi mamlakat bo'lish to'g'risidagi qarori asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyevning yaqinda Moskvada bo'lib o'tgan Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi majlisida kuzatuvchi mamlakat yetakchisi sifatida ishtiroki va ilgari surgan tashabbuslari Rossiya bilan iqtisodiy sohadagi hamkorlikni yanada jadallashtirishga turtki bo'lishi mumkin.

**Sheradil BAKTIGULOV,**
**Qirg'iziston Prezidenti huzuridagi Strategik tadqiqotlar milliy instituti ilmiy xodimi:**

— Bundan 20 yil avval, 2004-yil iyun oyida Toshkentda O'zbekiston va Rossiya o'rtasida asosiy davlatlararo hujjatlardan biriga aylangan Strategik sheriklik to'g'risidagi bitim imzolangan edi. Hujjat o'zaro hamkorlikning asoslari va yo'nalishlarini belgilab berdi.

O'sib borayotgan ikki tomonlama hamkorlik ko'rsatkichlaridan biri — bu o'zaro tovar ayirboshlash bo'lib, u allaqachon o'n milliard dollarlik dovondan oshgan.

Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik ko'plab sohalarda, jumladan, energetika, aerokosmik, kimyo muhandisligi, ta'lim, transport, infratuzilma, qishloq xo'jaligi va boshqalarda ham izchil rivojlanishini kutib qolamiz. Zotan, O'zbekiston va Rossiya iqtisodiyoti bir-birini to'ldiradi.

Prezident Vladimir Putinning Toshkentga davlat tashrifi uning 2024-yil mart oyida davlat rahbari sifatida qayta saylanganidan keyin O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Joriy yilning may oyida Vladimir Putin o'zining inauguratsiya marosimidagi nutqida Rossiya tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash ustuvor yo'nalish ekanligini tasdiqladi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda O'zbekistonning mintaqadagi qo'shnilari bilan hamkorligi ustuvorligini e'lon qilgan edi. Ko'rib turganimizdek, har ikki Prezidentning tashqi siyosat yo'lida o'xshash strategik qarashlari mavjud.

Qolaversa, O'zbekiston Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik hamkori va ittifoqchisidir. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar ishonchli hamda do'stona siyosiy muloqot bilan ajralib turadi. Hukumatlararo juda yaxshi muloqot o'rnatilgan. Uning ishonchliligini har ikki davlat hukumat rahbarlari darajasida Qo'shma komissiya tuzilgani tasdiqlaydi. Qo'shma komissiya doirasida ikki tomonlama faoliyatning barcha masalasi bo'yicha sa'y-harakatlar muvofiqlashtirilmoqda.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar juda mustahkam, Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev hamda Vladimir Putin ishonchli do'stlardir. Shuning uchun aytish mumkinki, ikki davlat rahbarlari rahnamoligida O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish bo'yicha strategik sheriklik bugungi kunda o'zining eng yaxshi tarixiy davrini boshdan kechiryapti.

Eng muhimi, bunday hamkorlik nafaqat O'zbekiston va Rossiya, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari farovonligini oshirishga har tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda.

**"Dunyo" AA.**

**Parij iqtisodiyot maktabida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha O'zbekistonning milliy modeli taqdim etildi.**

Muloqot

## Vakilimiz JSST Yevropa mintaqaviy byurosi seminarida qatnashdi

*Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari Dilorom Toshmuhamedova Bryussel shahrida ruhiy salomatlik sohasida yetakchilik va transformatsiya masalalariga bag'ishlangan JSST Yevropa mintaqaviy byurosi seminarida qatnashdi.*

22 ta mamlakatdan 80 dan ortiq mutaxassislar ishtirok etgan seminarda stigma bilan kurashish va jamiyatda ruhiy salomatlik bo'yicha yetakchilikni kuchaytirish hamda moliyaviy himoya va ruhiy salomatlikka sarmoya kiritish masalalariga bag'ishlangan bir qator sessiyalar o'tkazildi.

Jamiyatda ruhiy salomatlik bo'yicha yetakchilikni kuchaytirish sessiyasi doirasida vakilimiz O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, yoshlar ruhiy salomatligini mustahkamlash borasidagi ishlar to'g'risida batafsil ma'lumot berdi. Ayni chog'da Senat boshchiligida tashkil etilgan o'smirlar va yoshlarning ruhiy salomatligini profilaktika qilish va mustahkamlash masalalari bo'yicha idoralararo ishchi guruh faoliyatiga ham batafsil to'xtalib o'tildi.

D. Toshmuhamedovaning JSST Yevropa mintaqaviy byurosi Mamlakat strategiyalari va sog'liqni saqlash tizimlari bo'limi direktori N. Muskat bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida mazkur tuzilma hamda O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati va uni chuqurlashtirish istiqbollari keng muhokama qilindi.

Senator va hayot

## Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar — e'tibor markazida

*Oliy Majlis Senati a'zolari muntazam ravishda joylarda bo'lib, turli yo'nalishlarda o'rganish olib bormoqda, jumladan, aholi bandligini ta'minlash holatini tahlildan o'tkazmoqdalar. Ular ana shu jarayonda "mahalla yettiligi" — Kengash — Senat" uch bo'g'inli hamkorlik tizimidan samarali foydalanishayotir.*

Xususan, senator Baxtigul Bo'tayeva Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani mahalliy Kengash deputatlari bilan hamkorlikda tumanni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, aholi muammolarini o'rganish hamda tomorqalardan unumli foydalanish orqali oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida "mahalla yettiligi" tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganib chiqdi.

Tumandagi Bog'obod mahallasida Sayxunobod tajribasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ayni paytda o'z samarasini bermoqda. Ya'ni mahalla aholisi tomorqa va xonadonlar imkoniyatlaridan samarali foydalanib, o'zlarining daromadlarini oshiryapti.

Ayniqsa, mahalla aholisi tomonidan parrandachilik, asalarichilik hamda sabzavot va boshqa ekinlar yetishtirish borasida yaxshi tajriba yo'lga qo'yilgani ishchi guruh e'tiborini tortdi.

O'z navbatida, ishchi guruh tomonidan tumandagi mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, ularni kasbga o'qitish orqali jamiyatdagi faolligini oshirish, iqtisodiy shart-sharoitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar va yaratib berilgan imkoniyatlar hamda qabul qilingan Farmon va qarorlar ijrosi chuqur tahlildan o'tkazildi.

O'rganishlar davomida ishchi guruh a'zolari aholi bandligini ta'minlash, tomorqa madaniyatini shakllantirish orqali oilaviy tadbirkorlikni yanada keng rivojlantirish hamda "mahalla yettiligi"ning o'zaro hamkorligini kuchaytirish borasidagi ishlarni kengaytirib borish yuzasidan mas'ullarga zarur tavsiya va takliflarini berishdi.

**"Xalq so'zi".**

Fikr

## O'ZARO ALOQALARNING YUKSAK BOSQICHI

*O'zbekiston va Rossiya munosabatlari tarixi bir necha asrlarga borib tutashadi. Ana shu o'tgan davr davomida ikki davlat o'rtasidagi aloqalar turli darajada bo'lgani, ammo bugungi kunga kelib u o'zining eng yuksak bosqichiga ko'tarilgani alohida e'tiborga molik.*

Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekistonga amalga oshirgan bu galgi tashrifiga tayyorgarlik doirasida parlament a'zolari uchrashuvlari, siyosiy maslahatlashuvlar, "Innoprom" ko'rgazmasi, ikki mamlakat yetakchi muhandislik-texnik oliy o'quv yurtlari rektorlari hamda nufuzli tibbiyot muassasalari rahbarlarining anjumanlari o'tgani, poytaxtimizda esa Rus san'ati haftaligi davom etayotgani bunga yorqin misol bo'la oladi.

Ko'ksaroy qarorgohida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning tor doirada o'tgan uchrashuvi asnosida ham bu alohida e'tirof etildi.

Ayni chog'da ikki davlat yetakchilari tomonidan O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari ko'rib chiqildiki, bu ikki taraf uchun ham birdek manfaatlidir.

Ikki davlat rahbarining delegatsiyalar ishtirokidagi kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralari ham muhim voqeliklarga boy tarzda kechdi. Zero, unda ham O'zbekiston va Rossiya manfaatlariga xizmat qiladigan dolzarb masalalar ko'rib chiqildi hamda qator kelishuvlarga erishildi.

Xususan, tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar, hududlar, jamoatchilik, ekspertlar va ishbilarmon doiralar darajasidagi aloqalarni yanada faollashtirishga kelishib olishganini alohida aytib o'tmoqchimiz. Negaki, bunday keng doiradagi hamkorlik yaqin istiqbolda o'z samarasini beradi. Aniq aytadigan bo'lsak, bu sa'y-harakatlar, pirovard natijada muzokaralar davomida ta'kidlanganidek, savdo hajmini 30 mlrd. dollarga yetkazish imkonini beradi. Shu maqsadda Rossiyada O'zbekistonning to'laqonli savdo vakolatxonasi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Muzokaralar davomida tibbiyot sohasidagi hamkorlikning bugungi holati va istiqbollari masalasi ham e'tibor markazida bo'ldi.

O'zbekiston va Rossiyaning tibbiyot yo'nalishidagi aloqalari xususida so'z borganda, poytaxtimiz mezbonlik qilgan "O'zbekiston — Rossiya: salomatlik yo'lida hamkorlik" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyani eslatib o'tish o'rinlidir.

Mazkur anjuman ikki davlatning sog'liqni saqlash tizimi mas'ullari, soha ekspert-lari va olimlari uchun o'zaro tajriba almashish hamda yangi qo'shma loyihalarni ishga tushirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish uchun o'ziga xos muloqot maydoni bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston uchun Rossiya bilan mazkur sohadagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Tibbiyot yo'nalishidagi hamjihatligimiz kasalliklarni davolash borasida o'zaro tajriba va texnologiyalar almashishdan tortib, kadrlarni tayyorlashgacha, umuman olganda, sohaning barcha yo'nalishini qamrab olgan.

Ilmiy-amaliy anjuman doirasida rossiyalik mutaxassislar tomonidan 172 nafar bemor tibbiy ko'rikdan hamda 35 nafar bemorda yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari o'tkazilganligi bunga yaqqol misoldir.

Qolaversa, konferensiya davomida ikki davlat tibbiyot markazlari va institutlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 10 dan ortiq kelishuvlar imzolandi.

Shuningdek, qatnashchilar yuqori texnologik xirurgik yordamni rivojlantirish, ikki davlatning tibbiyot oliygohlari o'rtasidagi qo'shma dasturlar, onkologiyadagi ilg'or texnologiyalar, neonatal skrining hamda O'zbekistonda shoshilinch tibbiy yordam xizmatidagi yutuqlar, urologiyada robot xirurgiyasining yangi imkoniyatlari, endokrinologiya sohasidagi o'zaro hamkorlik kabi dolzarb mavzulardagi ma'ruzalarni tinglash imkoniga ega bo'lishdi.

Muzokaralar davomida bu boradagi yutuqlarimiz e'tirof etilgani holda uni yanada rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ilgari surildi va qator kelishuvlarga erishildi. Ishonamizki, bu tibbiyot yo'nalishidagi hamkorlik aloqalarimizga yangicha sur'at beradi.

**Manzura SALIMOVA,**
**Oliy Majlis Senati a'zosi.**

## TURLI SOHALARDAGI FAOL ALMASHINUVLAR MUSTAHKAMLANADI

*Ma'lumki, O'zbekiston va Rossiya ko'p asrlik aloqalar, geografik yaqinlik va umumiy tarixiy ildizlardan kelib chiqqan boy madaniy hamkorlik tarixiga ega. Rus tili va madaniyatining o'zbek madaniyatidagi o'rni sezilarli bo'lib, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy kabi atoqli o'zbek yozuvchi va shoirlarining ham ijodi ko'pchilik ruslarga yaxshi tanish.*

Qayd etish joizki, O'zbekiston mustaqillikka erishgach mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Buni O'zbekistonda va Rossiyada madaniyat kunlari muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgani misolida ko'rish mumkin. Ularda teatrlashtirilgan tomoshalar, ko'rgazmalar, konsertlar va ikki mamlakat fuqarolarini bir-birining madaniy yutuqlari bilan tanishtiruvchi festivallar muntazam o'tkazilayotir.

Ayni paytda san'at sohasida almashinuv dasturlari faol amalga oshirilayotgani e'tiborga molik. Masalan, o'zbek rassomlari va musiqachilari uchun Rossiyada mahorat darslari, shuningdek, rossiyalik rassomlarning O'zbekistondagi madaniy tadbirlarda ishtirok etishi diqqatga sazovor. Bu tashabbuslar madaniy aloqalarni zamonaviy darajada rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan aytganda, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi rahbarlarining kecha bo'lib o'tgan uchrashuvi siyosiy va iqtisodiy masalalarni muhokama qilishdan tashqari, ikki davlat o'rtasida tarixan o'rnatilgan do'stlik aloqalarini, xususan, madaniyat va ta'lim sohalarini mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Tashrif davomida ta'lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu bejiz emas. Chunki bugungi kunda O'zbekiston va Rossiya qo'shma ta'lim dasturlarini yaratish, talabalar va o'qituvchilar almashinuvi bo'yicha faol ish olib bormoqda. Bu yoshlarga har ikki davlatning eng yaxshi universitetlarida ta'lim olish imkonini beradi, shuningdek, o'zaro tajriba va bilim almashishga sharoit yaratadi.

Shu ma'noda, ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida bo'lib o'tgan muzokaralarda madaniyat va san'at, fan, sog'liqni saqlash, turizm, yoshlar hamda sport sohalarida faol almashinuvlar davom ettirilishi ta'kidlanib, tomonlar O'zbekistonda Bauman nomidagi Moskva texnika universiteti va Butunrossiya tashqi savdo akademiyasi filiallarini ochish bo'yicha kelishuvlarga erishilganini faqat olqishlash mumkin.

Umuman olganda, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarning yana bir tasdig'i bo'ldi. Qolaversa, bu ikki tomonlama munosabatlarni yanada chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

**Inna KORJIKOVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## TAN OLISH HAM MARDLIK

*"Prezidentning yaqinda Jizzax viloyati faollari bilan uchrashuvidagi nutqida bir nuqta ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Unda davlatimiz rahbari shunday degan edi: "Xudo menga sog'liq berib, umr bersa, bizda kambag'allik va ishsizlik bo'lmaydi. Nimaga desangiz, bunga men yetti yil umrimni tikdim. Tizim yaratdim, qonun yaratdim, dunyoni ochib berdim. Xalqim yaxshi yashasin, niyatlari amalga oshsin, bolalari baxtli bo'lsin, nevaralari sog'lom tug'ilsin, maktabi ishlasin, yo'llari ravon bo'lsin deb ishga keldim..." Yozilgan nutqdan tashqariga chiqib aytilgan ushbu mulohazalar odamlarni favqulodda sergaklantirdi. Ehtimol, shundandir ayni iqtibos matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda ko'p "aylandi". Nega? Chunki bu so'zlar samimiy va chin yurakdan aytilgan edi".*

### Aks sado

Bu parcha siyosatshunos, senator Qudratilla Rafiqovning "Ishonch" va "Xalq so'zi" gazetalarida e'lon qilingan "Shavkat Mirziyoyev: men umrimni shu xalqqa tikkanman!" deb nomlangan maqolasidan olingan. Bugun barchamizni qizg'in munosabatga chorlayotgani, shak-shubhasiz, maqolaning hayotiy ekanligidir. Maqola muallifi qahramoni portretini xalqchil tilda, sodda qilib, bo'rttirmasdan, balandparvoz gaplarni "ovlamasdan" boricha yurakka yetib boradigan tarzda yoritib bergan. Ta'bir joiz bo'lsa, ba'zi "muzlik davri" o'tmishini unutib, yangi kunning shukronasini "yuragi" sezmayotganlar yuziga "oyna tutgandek" bo'lgan. Albatta, ota-bobolarimiz "oshing halol bo'lsa, ko'chada ich" deyishgan. Nega bor gapni aytmasligimiz, olib borilayotgan tub islohotlarimizni "ipidan ignasigacha" tushunib olib, uni xalqqa yetkazmasligimiz kerak?! Maqola barcha jihati bilan ana shunday yo'g'rilgan.

Darhaqiqat, 2016-yilda Vatanimiz tarixida burilish davri boshlandi. Yurtimizdagi yangi o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlari, qo'yingki, barcha sohada ortga qaytmas shiddatli islohotlar qanot yozdi. Uning samaralarini esa bugun xalqimiz o'z hayotida, turmush tarzida chuqur his qilmoqda. Jahon hamjamiyati, ko'plab nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy ekspertlar yurtimizdagi yangilanishlarni e'tirof etayotgani yuraklarda faxr tuyg'ularini uyg'otadi. O'zing tug'ilib o'sgan, kindik qoning tomgan zaminda shunday dorilamon kunlar kelganini ko'rib, quvonmay bo'ladimi?

Har birimiz vijdon degan tuyg'u bilan yashar ekanmiz, kechagi kunimizni va bugunimizni taroziga qo'ysak, barchasi oydinlashadi. Uzoq yillar hukm surgan "paxta siyosati" kishanlari yechilishi ham har birimizni o'zligimizni anglatdi. Paxtani siyosat darajasiga ko'tarib, har xil azob-uqubatlarga giriftor qilib, "ho'lu quruq barobar yonganda" bu qiyinchiliklardan hech kim chetda qolmagan. Barcha kasb egalari safarbar etilib, ayniqsa, ta'lim tizimi butunlay paxta qulligiga aylantirilgani, talabaga qo'shilib, professor-o'qituvchilarning ham og'ir sharoitlarda ishlab, yashab umri o'tganligini oqlab bo'lmaydi. Shaxsan Prezidentimizning siyosiy irodasi tufayli paxta yakkahokimligiga barham berildi.

Shu o'rinda taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlari naqadar haqiqat ekani ko'ngildan kechadi. Chunki paxta yakkahokimligiga barham berilishi nafaqat o'quvchi va o'qituvchilarni majburiy mehnatdan ozod qildi, balki ta'limda yangi islohotlarni boshlashga yo'l ochdi. Inchunin, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim-tarbiyadir. Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini tubdan rivojlantirishning o'ziga xos yangi strategiyasi amalga oshirilmoqda va bu o'z samarasini beryapti. Oliy ta'lim qamrovi 42 foizga yetganligi va mazkur tizim korrupsiyadan to'la xoli tizimga aylantirilganligi ayni haqiqatdir.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining fakultet va kafedralarida, professor-o'qituvchilar hamda talabalar davralarida "Ishonch" gazetasining 2024-yil 21-may hamda "Xalq so'zi" gazetasida shu yil 22-may kuni nashr etilgan siyosatshunos Qudratilla Rafiqov maqolasi chuqur o'rganilmoqda. Shuningdek, maqola yoshlarga ma'naviy ibrat qilib ko'rsatilayotir. Endilikda ushbu maqola mazmun-mohiyatini professor-o'qituvchilarimiz boshchiligida "Bir ziyoli — bir mahallaga ma'naviy homiy" tamoyili asosida mahallalarda, quyi ta'lim bo'g'inlarida o'rganish ishlarini boshlamoqdamiz.

Darhaqiqat, ziyolilar islohotlarning jonli targ'ibotchisi, ta'bir joiz bo'lsa, vatanparvarlikning yorqin timsoli bo'lmog'i lozim. Shu bois vatandoshlarimizni, millatdoshlarimizni va talaba yoshlarimizni yangi O'zbekistonni barpo etish, uchinchi Renessansga poydevor qo'yish yo'lida olib borilayotgan islohotlarning oldingi saflarida bo'lishlarini so'rab qolaman.

**To'lqin TESHABOYEV,**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori,**
**iqtisodiyot fanlari doktori,**
**professor.**



Farmatsevtika:

## TANQIDIY TAHLILLARDAN QANDAY XULOSALAR QILINADI?

*Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimida sog'liqni saqlash sohasi alohida o'rin tutadi. Zero, har qanday mamlakatning katta boyligi xalqi salomatligidir. Shu bois keyingi yillarda yurtimizda barcha soha va tarmoqlarda bo'lgani kabi aholini dori vositalari, tibbiyot buyumlari va tibbiy texnika bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ham kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.*

### Mulohaza

Xususan, aholi hamda sog'liqni saqlash muassasalarini arzon va sifatli farmatsevtika mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash, farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirishning huquqiy mexanizmlarini tartibga solishga qaratilgan 50 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ammo tahlillar bugun aholimizning barcha qatlami ushbu sohada yaratib berilgan imtiyoz va xizmatlardan to'laqonli va unumli foydalana olyaptimi, degan savolni so'roq ostida qoldirmoqda. Boisi ayrim "tadbirkorlar" ushbu sohada yaratib berilayotgan imtiyoz va rag'batni xalqning og'irini yengil qilish uchun imkoniyat, deb emas, aksincha mo'may pul topish manbai, deb bilishi aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Agar respublikamizda 2018-yilda 10 ming 764 ta dorixona faoliyat olib borgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ular soni 16 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Ya'ni mamlakatda o'rtacha 2300 nafar kishiga bitta dorixona to'g'ri keladi.

Bu ko'rsatkich xorijiy davlatlarga qiyoslanganda bitta dorixona Daniyada 18,5 ming, AQShda 5,3 ming, Buyuk Britaniyada 4,96 mingta, Germaniyada 3,97 ming, Turkiyada 3,36 ming kishiga to'g'ri keladi. Ko'rib turganimizdek, O'zbekistonda bu ko'rsatkich juda katta tafovutni tashkil qilib, dorixonalar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Raqamlar chuqurroq tahlil etilganda, dorixonalar olis hududlarda aholining og'irini yengil qilish uchun emas, aksincha shahar markazlarida farmatsevtika va tibbiyot xodimlari orasidagi yashirin kelishuv asosida ochilayotganini ko'rsatmoqda.

Bu kabi salbiy holatlarni bartaraf etish hamda aholining arzon va sifatli dori vositalariga bo'lgan ehtiyojini to'laqonli ta'minlash maqsadida "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham bir qator vazifalar belgilangan. Jumladan, farmatsevtika sohasida dori vositalariga ehtiyojni 70 foiz darajada ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash, dorivor va oziq-ovqatbop o'simliklarni yetishtirish hamda ko'paytirish bo'yicha har yili 25 ming gektar maydonda madaniy plantatsiyalarni tashkil etish reja qilingan. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali ish o'rinlari yaratish, sifati kafolatlangan dori vositalarini ishlab chiqarish, dorilar narxining asossiz oshirilishiga chek qo'yishdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan farmatsevtika tarmog'ida qo'lga kiritilayotgan natijalar va istiqbolli rejalarga oid taqdimotda ham sohada erishilgan yutuqlar tanqidiy tahlil qilinib, galdagi vazifalar belgilab berildi. Xususan, yil boshidan buyon yangi loyihalar uchun 100 million dollar arzon resurs ajratilgani, bundan tashqari, "Asaka" banki tomonidan 200 million dollar jalb qilingani e'tirof etildi. Bu imkoniyatlar natijasida o'tgan 4 oyda 30,5 million dollarlik ikkita loyiha ishga tushirilib, 160 ta ish o'rni yaratildi. 1,5 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 51 million dollarlik eksport amalga oshirilgan.

Ammo hali ishga solinmagan imkoniyatlar ham ko'p. Shu bois yil oxiriga qadar 400 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarish, eksport-ni 200 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. 2 milliard dollarlik 147 ta loyiha boshlanib, shundan 28 tasi joriy yilda ishga tushirilishi belgilangan. 450 turdagi mahsulotni mahalliylashtirish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda sohada raqamlashtirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilib, bu yil raqamlashtirish ko'rsatkichi 65 foizga, 2025-yilda esa 100 foizga yetkaziladi. Soha raqamlashtirilishi nafaqat tizim shaffofligini, qolaversa, narx-navoni kamida 20 foizga arzonlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, yuqorida belgilab berilgan vazifalarning amalga oshirilishi farmatsevtika sohasini yangi bosqichga olib chiqishga, aholiga sifati yuqori bo'lgan dori mahsulotlarini yetkazib berishga, fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish qulayliklarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

**Oltinoy MAMIROVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

DEPUTATLAR — HUDUDLARDA

## BURCH VA MAS'ULIYAT UYG'UNLIGI

*Avval xabar berilganidek, shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari o'z saylov okruglarida bo'lib, fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning hayotimizda nechog'li ahamiyatga egaligi, yangi qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyati joylarda uyushtirilayotgan uchrashuvlarning asosini tashkil etayotir.*



### Aholiga qanday ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilmoqda?

Qonunchilik palatasi deputati Akshagul Tulegenova Navoiy viloyatining Konimex tumanida bo'lib, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi binosining ochilish marosimida qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, bugun davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan joylarda tuzilgan "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari inson manfaatlarini himoya qilishda yakdil ko'makchiga aylandi. Mahallalar darajasida aholiga individual yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish orqali og'ir vaziyatga tushib qolgan fuqarolarimizning ijtimoiylashuviga erishilmoqda. Xususan, Konimex tumanidagi mahallalarda kompleks xizmat ko'rsatuvchi 6 nafar ijtimoiy xodim tomonidan jami 112 ta keys ochilgan bo'lib, shundan bugungi kunga qadar 61 tasi bo'yicha ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilib, fuqarolarning mushkuli yengillashtirildi.

Foydalanishga topshirilgan yangi binoda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Jumladan, panduslar, Brayl alifbosidagi yozuvlar hamda shinam, yorug' xonalar va hokazo. Shuningdek, markazda psixolog xizmati, tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasi faoliyati ham yo'lga qo'yilgan.

Deputatning navbatdagi manzili Qiziltepa tumani bo'ldi. Xalq vakili "Toshrabot" MFYda joylashgan 24-oilaviy poliklinikada bo'lib, shifokor va hamshiralar bilan suhbatlashdi. Ularga qonunchilikdagi yangiliklar, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida batafsil ma'lumotlar berdi.

Samimiy muloqotlar davomida oilaviy poliklinika shifokori Ahror Ro'ziyev va boshqalar yurtimizda tibbiyot sohasidagi sa'y-harakatlarni alohida e'tirof etdilar. Shu bilan birga, sohani yanada rivojlantirish bo'yicha o'z fikr-mulohazalari, takliflarini bildirdi.

### "Mahalla yettiligi" faoliyati o'rganildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Muxtor Hojimatov ham joylardagi mavjud muammolarni mahallabay, xonadonbay o'rganish maqsadida Namangan shahridagi bir qator ijtimoiy soha obyektlari, ta'lim muassasalari faoliyati bilan tanishdi.

Xususan, "Marg'ilon", "Yangi asr", "Ziyokor", "Zarbdor" mahalla fuqarolar yig'inlarida bo'lib, "mahalla yettiligi" bilan uchrashdi.

Uchrashuv davomida so'nggi yillarda tizimni takomillashtirishga doir yuzga yaqin me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'rni va rolini oshirishga qaratilgan salmoqli ishlar bajarilgani qayd etildi.

— Mahalla — barchamizni jipslashtiradigan, mehr-oqibatni, insoniylikni o'rgatadigan, asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezavol saqlab keladigan maskan hisoblanadi, — dedi deputat M. Hojimatov. — Keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida u hayotimizga daxldor masalalarni hal etishda xalq va davlatni bir-biriga yaqinlashtirib, munosabatlarni tartibga soluvchi muhim tuzilmaga aylanmoqda.

Ko'tarinki ruhda o'tgan muloqotda fuqarolar so'nggi yillarda ushbu sohada katta o'zgarishlar bo'layotgani, ayniqsa, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat ta'sirchan tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgani bugun o'z samarasini berayotganini ta'kidlashdi.

Uchrashuvlar chog'ida deputat hududdagi bir qator ijtimoiy soha obyektlari, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlarida ham bo'lib, fuqarolarni o'ylantirib kelayotgan masalalarni o'rgandi.

### Bitiruvchi yoshlarga maslahatlar berildi

Parlament quyi palatasi deputati Zumrad Bekatova ham o'z saylov okrugida bo'lib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, saylovchilarning yashash tarzi bilan yaqindan tanishmoqda. Ularni qiynayotgan muammo va kamchiliklarni vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda hal etish choralarini ko'ryapti.

Deputatning dastlabki manzili Amudaryo tumanidagi "Qizilcholi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan 9-maktab bo'ldi.

U o'quvchi yoshlar bilan bo'lib o'tgan muloqot davomida mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan bitiruvchilarni samimiy tabriklab, kelgusi ishlarida omadlar tiladi va munosib bilim hamda hunar egallashlari uchun o'z maslahatlarini berdi. Keyingi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yoshlarimiz turli fanlar, sport, san'at va adabiyot sohalarida o'z qobiliyatini yaqqol namoyon qilib kelayotganini alohida e'tirof etdi.

Deputat, shuningdek, "O'zbekiston" mahalla fuqarolar yig'inida bo'lib, xonadonma-xonadon, uyma-uy yurib aholining yashash sharoitlari bilan yaqindan tanishdi. Fuqarolarga qonunchilikdagi yangiliklar haqida tushuntirishlar berildi.

Uchrashuvlarda aholini qiynab kelayotgan bir qator muammolar nazoratga olinib, ularga mutasaddi tashkilot vakillari bilan birgalikda yechim izlandi.

### Deputat so'rovidan so'ng muammo hal bo'ldi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Bahromjon Rahmonaliyev Oltiariq tumanida bo'lib, "Povulg'on" va "Qapchug'ay" mahalla fuqarolar yig'inlarida aholi vakillari bilan ochiq muloqotlar o'tkazdi.

Suhbat davomida fuqarolar o'zlarini o'ylantirib kelayotgan ayrim masalalar bo'yicha deputatga murojaat qildi. Xalq vakili tegishli idora mas'ullari bilan birgalikda ko'plab murojaatlarni joyida hal etish choralarini ko'rdi. Yechimi uzoq vaqt talab qiladigan masalalar nazoratga olindi.

Ma'lumki, deputat yaqinda Oltiariq tumanidagi Katput va Azimobod hududlarida fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazgan edi.

Muloqotlar chog'ida "Katput" MFYda yashovchi fuqarolar Farg'ona — Qo'qon avtomagistral yo'lida joylashgan 11 va 43-maktablarning piyodalar o'tish yo'lagiga hamda Azimobod qishlog'ining kirish qismiga svetofor o'rnatishda yordam so'ragan edi.

Deputat mazkur murojaat yuzasidan Avtomobil yo'llari qo'mitasiga deputatlik so'rovi yuborgan edi. Xalq vakili sa'y-harakati bilan bu muammo bartaraf etilib, ushbu hududlarga zamonaviy svetoforlar o'rnatildi. Bu, o'z navbatida, fuqarolar, ayniqsa, o'quvchi yoshlarning xavfsizligini ta'minlab, yo'l-transport hodisalari hamda oqibatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.*

**"Xalq so'zi".**

**Poytaxtimizda Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar vazirlik va idoralari matbuot kotiblarining "Axborot xizmatlari — 2024: milliy va xorijiy tajriba" mavzuida qo'shma o'quv seminari bo'lib o'tmoqda.**

# ILMIY TADQIQOT NATIJASI HAYOTGA KO‘CHMASA, U QOG‘OZDA QOLIB KETADI

## O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, biologiya fanlari doktori, professor Shahlo TURDIQULOVA bilan suhbat

**— Avvalo, Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti etib tayinlanganingiz bilan tabriklaymiz! Siz Vatanimiz ilm-fani bulog‘i bo‘lgan muassasaning 80 yillik tarixida ushbu yuksak lavozimda ish boshlagan ilk ayolsiz. Albatta, bu yuksak sharaf, ayni paytda mas’uliyat ham...**

— Qutlov uchun tashakkur! Albatta, Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti sifatida faoliyat yuritish men uchun katta sharaf. Aslida men Fanlar akademiyasiga begona emasman. Bir necha yillar ilgari mana shu dargohning yosh umidli olimalaridan biri sifatida ilm-fan maydoniga kirib kelganman. Fanlar akademiyasi — mamlakatimiz ilm-fanining asosi. Yillar davomida bu yerda shakllangan ilmiy maktablar, yaratilgan ilmiy ishlanmalar, olib borilgan tadqiqotlar natijalari jamiyat taraqqiyotiga, ta’lim, sanoat, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish muassasalari, umuman, hayotning barcha jabhasi rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shyapti.

To‘g‘ri, akademiya tarixning turli sinovlarini boshdan kechirgan vaqtlar bo‘ldi. Lekin qanday mashaqqatlar, yutuqlar davri bo‘lmasin olimlar, ilm-fan fidoyilari ilmiy-tadqiqot institutlaridan uzoqlashmadi. Fanni o‘z taqdiri deb bilgan insonlar shu dargohda millat va mamlakat rivoji uchun xizmat qildi. Ilm-fanimiz fidoyilarining mehnati, jonkuyarligi, sadoqati evaziga Fanlar akademiyasi o‘z mavqeini, hayotimizdagi o‘rnini, ahamiyatini bugunga qadar saqlab kelmoqda.

Prezidentimiz boshchiligida mamlakatimiz taraqqiyotining yangi davrida sohaga munosabatning tubdan o‘zgargani bois akademiya faoliyatida ham yangi, o‘ziga xos bosqich boshlandi. Ilm-fan ilmiy-tadqiqot institutlari laboratoriyalaridan chiqib, innovatsiyalarga xizmat qila boshladi. Yangi ilmiy ishlanmalar, startaplar mamlakatimiz iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga va barqaror jamiyat qurishga yordam bermoqda. Men ana shunday yorug‘ istiqbol sari dadil qadam tashlayotgan jamoaning bir bo‘lagiga aylanish maqsadida bu dargohda yangi bir davrni boshlayotganimdan mamnunman.

**— Faoliyatingiz bilan tanishib, to‘g‘risi, qanchalik quvongan bo‘lsak, shunchalik faxrlandik ham. Zero, siz erishayotgan yutuqlar millatimiz dahosining ifodasi o‘laroq barchamizga ana shunday yorug‘ tuyg‘ular baxsh etishi tabiiy. Ayting-chi, siz uchun ilm-fan o‘zi nima, u qanday bo‘lishi kerak va mazkur sohaning yurtimizdagi bugungi ahvoliga qanday baho berasiz?**

— E’tirofingizdan boshim ko‘kka yetdi. Aslida biz tarixda ikki bor sivilizatsiyani yaratgan, insoniyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan buyuk xalq farzandlari sifatida ko‘p narsalarga qodirmiz. Tomirlarimizda xorazmiylar, buxoriylar, termiziylar, ibn sinolar, ulug‘beklar, navoiylar qoni oqmoqda. Ana shunday buyuk zotlarga munosib avlod bo‘lish hammamizning zimmamizdagi sharafli burch.

Men mana shu ulug‘ ishga borimni bag‘ishladim. Ilm-fan umrim mazmuniga aylangan. U ezgulikka xizmat qilish, hayotda yaxshi iz qoldirish, mamlakatimizni dunyoga yanada tanitish, qanday buyuk ajdodlarning avlodi ekanimizni, millatimiz zakovati, quvvai hofizasini yana bir bor isbotlash vositasidir. Ana shu tushunchaning o‘zi ilm-fanimiz qanday bo‘lishi, qay darajada rivojlanishi kerakligini ko‘rsatadi. Har qaysi ilmiy tadqiqot hayotimiz bilan bog‘lanishi, uning natijasi odamlar turmush tarzini yengillashtirishi, umuman olganda, bashariyat taraqqiyotiga xizmat qilishi shart. Bugungi kun ilm-fani dinamik, o‘zgaruvchan, o‘suvchan bo‘lishi, zamonaviy muammolar va mavjud kamchiliklarni ro‘yirost ko‘rsatib, ularga yechim izlashi lozim.

Mamlakatimizda ilm-fan rivoji uchun hamma shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Qator qonunlar, Prezidentimizning Farmon va qarorlari, turli yig‘ilishlarda, akademiklar, olimlar bilan uchrashuvlarda belgilab berilgan vazifalar sohaga yondashuvlarni ham, uning taraqqiyot yo‘nalishlarini ham butunlay o‘zgartirmoqda.

Ilgari Fanlar akademiyasi tarkibidagi ko‘plab institutlar tugatilgan yoki oliygohlar tarkibiga o‘tkazilgan bo‘lsa, keyingi yillarda ular yana Fanlar akademiyasi tarkibiga qaytarildi. Institutlar ta’mirlanib, zamonaviy jihozlarga, laboratoriyalarga ega bo‘lmoqda. Qisqa vaqtda olimlarning ham moddiy ta’minoti sezilarli darajada yaxshilandi. Bugun ilmiy darajaga ega bo‘lganlar maoshiga 30 — 60 foizlik ustamalar to‘lanyapti. Bu esa tadqiqotchilarda rag‘batni oshirib, ilmiy tashkilotlarda ilmiy darajaga ega bo‘lish sur’atlari o‘smoqda.

Albatta, maqtanadigan yutuqlar bilan birga, hali yechimini kutayotgan muammolar ham ko‘p. Ularni ikkiga bo‘lish mumkin. Biri — sohadagi tashkiliy masalalar bilan



chambarchas bo‘lsa, ikkinchisi, olimlarning dunyoqarashini, faoliyatiga, hayotga munosabatini o‘zgartirish bilan bog‘liq. Bugun oliygohlar, ilmiy-tadqiqot maskanlarining deyarli barchasi zamonaviy laboratoriyalar, so‘nggi rusumdagi jihozlar bilan ta’minlandi. Biroq ulardan foydalanish samaradorligi qanday, degan savol kishini o‘ylantiradi. Hozir dunyoda taraqqiyot shiddatli kechmoqda. Ko‘plab sohalarga sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar kirib kelyapti. Katta mablag‘lar evaziga xorijdan xarid qilingan uskunalar, laboratoriya jihozlaridan hozir maqsadli foydalanilmasa, vaqt o‘tib ular ham zamon talabiga javob bermay qolishi, qo‘polroq aytganda, chiqitga chiqishi hech gap emas. Biz tezroq va ko‘proq ana shu texnologiyalar bilan ishlaydigan iqtidorlarni tarbiyalashga urg‘u berishimiz lozim.

Bugun yurtdoshlarimizda olimlik rutbasi, mas’uliyati haqidagi tushunchalarni ham yangilaydigan zamon. Hozir ertalabdan kechgacha laboratoriyaga qamalib olib, dunyodan uzilgan holda kitob titkilab o‘tiradigan davr emas. Bu fikrim bilan ilm yo‘liga kirgan kishi kitob o‘qimasligi kerak demoqchi emasman. Faqat ayni zamonda sohaning har bir vakili dunyodan, jumladan, ilm-fan sohasida jahonda kechayotgan eng so‘nggi jarayonlardan xabardor bo‘lishi shartligini ta’kidlamoqchiman. Chunki biz oylab, yillab vaqtimizni, kuch va salohiyatimizni ketkazib, o‘rganayotgan yoki ixtiro qilishga tirishayotgan narsa dunyoning boshqa burchida allaqachon hayotga tatbiq qilingan bo‘lishi mumkin. Dunyodan xabardor olim ana shu ilmiy yangilikni o‘rganishi va o‘z ishini shu vaqtga qadar erishilgan ilmiy yutuqning tamomlangan nuqtasidan davom ettirishi mantiqlidir.

Hayotimizda yuz berayotgan favqulodda holatlar, xususan, bir necha yil oldingi koronavirus pandemiyasi ilm-fan sohasi bunday jiddiy yuklamalarga tayyor bo‘lmaganini ko‘rsatib qo‘ydi. Ushbu kasallikni davolash, unga qarshi emlash vositalarini yaratish borasida katta qiyinchiliklarga duch keldik. Shukrki, Prezidentimizning qo‘llab-quvvatlovi bilan ana shu murakkab vaziyatdan chiqishga erishildi. Virusga qarshi vaksina ham, davolash chora-tadbirlari ham ishlab chiqildi. Natijada boshqa davlatlarga nisbatan kam talafot ko‘rildi. Biroq eng kichik talafot ham ma’lum yutqiziq ekani inobatga olinsa, barcha sohada ilm-fan doim hayotdan bir qadam oldinda yurishi kerakligi, har qanday favqulodda vaziyatga tayyor turishi, uning oldini olish choralarini ko‘rib borishi zarurligi oydinlashadi. Demak, biz, olimlar endilikda har qanday murakkablikdagi muammoga tez va aniq yechim topib bera olishimizni isbotlab, jamiyat ishonchini qozonishimiz lozim.

**— Fikrlaringizdan mamlakatimizda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashga katta hissa qo‘shganingiz esga tushadi. Shu o‘rinda, ilmiy faoliyatingiz haqida to‘xtalsangiz. Siz tadqiq etayotgan inson genetikasi va biotexnologiyasi sohasi yurtimiz, umuman, butun dunyo uchun qanday istiqbollar taqdim etishi mumkin?**

— Darhaqiqat, o‘sha yillari rahbarligimda “SARS-CoV-2”ni aniqlash uchun mamlakatimizda birinchi PSR test-sistema tayyorlangan, oyiga 500 ming miqdorda test ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgandi. Ikki yil davomida yurtimiz laboratoriyalarining ehtiyojlari to‘liq qoplangan. Shuningdek, Xitoyning “Zhifei Biopharmaceuticals” kompaniyasi bilan hamkorlikda 7 ming nafar ko‘ngillida rekombinant vaksinaning klinik sinovlari o‘tkazilib, 2021-yil martida “ZF-UZVac-2001” savdo belgisi ostida ro‘yxatdan o‘tkazildi. Ishlab chiqarishga tatbiq etilgan vaksina bilan aholimizning katta qismi emlandi. Ushbu murakkab ishga jalb qilinganimning boisi ilmiy izlanishlarim inson genetikasi va biotexnologiyasi bilan bog‘liqligidir.

Bugun ilmiy sohaning ayni yo‘nalishi yurtimiz uchun ham, butun dunyo uchun ham nihoyatda dolzarbligini ta’kidlamoqchiman. Jahonning taniqli ekspertlari hozirgi kunda genetika va biotexnologiyani rivojlantirmagan mamlakatlar yaqin yillarda taraqqiyotda orqada qoladi, deb prognoz qilmoqda. Bu bejiz emas. Birinchidan, biotexnologiya va genetika zamonaviy ilm-fanning eng ilg‘or yo‘nalishlari bo‘lib, unda deyarli har oy yangi va eng muhim kashfiyotlar ro‘y beradi. Bu oddiy odamga yangi “iPhone” ishlab chiqarilishi kabi sezilmasligi mumkin, ammo ahamiyati jihatidan bu kashfiyotlar salmoqli bo‘ladi. Ya’ni ular inson, uning salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi, atrof-muhit barqarorligi uchun nihoyatda muhim.

Ikkinchidan, biotexnologiya va genetika yutuqlariga dunyo bo‘yicha talab juda yuqori bo‘lib, bu jihatdan axborot texnologiyalaridan keyingi o‘rinda turadi. Ayni sohadagi ilmiy izlanishlar mevasidan ulkan daromad ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, ko‘plab sohalarda





xarajatlarni karrasiga kamaytirish imkonini beradi. Oddiy misol: dunyoda birinchi inson genomini o‘qish uchun 10 yil va 3 milliard dollar kerak bo‘ldi, endi genomni dekodlashga taxminan 600 AQSh dollari kifoya. Endilikda har bir kishi o‘z genomi haqida batafsil ma’lumotlar joylangan genetik pasport olishi mumkin, bu kabi amaliyotni mamlakatimiz laboratoriyalarida ham bajarish imkoni bor. Ammo yurtimizda genetika va biotexnologiya bo‘yicha muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilayotgan bo‘lishiga qaramay, mazkur yo‘nalishga hali bozor mexanizmlari yetarli tatbiq etilgani yo‘q.

Sohadagi muvaffaqiyatlar tufayli ko‘p sonli yangi avlod dori vositalari ishlab chiqilmoqda va bozorda paydo bo‘lmoqda. Masalan, insoniyat uzoq vaqt davomida qandli diabet uchun samarali davo usullarini, choralarini kutmoqda. Esimda: o‘tgan asrning 90-yillarida universitetdagi biotexnologiya darsimizda domlamiz Mirzaadham Hakimov aytar edi: “Qachonki olimlar insulin retseptorlariga qarshi dori topsa, shunda diabet muammosi hal bo‘ladi”. Mana yillar o‘tdi va shunday dorilar paydo bo‘ldi, faqat biotexnologiyalar rivojlangani hisobiga amalga oshdi bu.

Bugun mamlakatimiz olimlari uchun juda muhim masala — bu global ilm-fan bilan uyg‘unlashib, jahonda o‘z o‘rnini topish. Masalan, biz Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekiston aholisining populyatsion genetikasi bo‘yicha keng ko‘lamdagi fundamental tadqiqotlarni uzoq vaqt davom ettirdik. “National Geographic” tomonidan muvofiqlashtiriladigan “Genographic” xalqaro konsorsiumiga 2010-yilda qo‘shilib, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishi va Yevroosiyo populyatsiyalari bilan genetik bog‘liqligi o‘rganildi. Birinchi bor Markaziy Osiyo regionining genetik, madaniy va geografik landshaftlarining bog‘liqligi dinamikasi, jumladan, turkiyzabon xalqlarning genetik o‘xshashligi tahlil qilindi. Ko‘p yillik izlanishlar samarasida jahon aholisining genetik xaritasida mavjud bo‘lgan Markaziy Osiyo genetikasining “oq dog‘i” to‘ldirildi. Quvonarlisi, barcha tadqiqot natijalari “Nature” jurnalida chop etildi.

O‘tkazilgan fundamental tadqiqotlar mintaqamizda eng ko‘p tarqalgan kasalliklar genetikasi bo‘yicha amaliy tadqiqotlarga asos bo‘ldi, buning natijasida 212 ta kasallikning 2500 dan ortiq genetik markerlari, jumladan, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning genetik patologiyalari o‘rganildi. Olingan natijalar chaqaloqlarning neonatal skriningi uchun test to‘plamlari ishlab chiqarish (hozirgi kunda yurtimizning barcha hududida sinov-tajriba tadqiqotlari o‘tkazilmoqda), genetik testlardan tibbiy muassasalarda faol foydalanish hamda genetik pasport yaratishga tatbiq qilinmoqda. Aytmoqchi bo‘lganimiz, bugun shu kabi zamon talabi yuqori bo‘lgan, hayotning o‘zi taqozo etayotgan yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borishimiz g‘oyat muhim.

**— Gaplaringizdan boshqa bir mavzu o‘rtaga qalqib chiqmoqda. Bu masala bugungi ilmiy tadqiqotlarning hayotiyligi, amaliy samarasi bilan bog‘liq. Afsuski, yurtimizda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy ishlarning natijadorligi juda past. Ular hayotga ko‘chmay, qog‘ozlarda qolib ketmoqda. Bilamizki, ilg‘or mamlakatlarda bu masalaga nihoyatda jiddiy qaraladi. Ilm-fan maskanlari, tadqiqotchilar turli kompaniyalar, ishlab chiqarish muassasalari, korxonalar bilan hamkorlikda, joiz bo‘lsa, ularning buyurtmasi asosida faoliyat yuritadi. Oqibatda mehnatlar besamar ketmaydi, olimlar ham moddiy manfaat ko‘radi. Bizda ham ana shu uyg‘unlikni yo‘lga qo‘yish uchun qanday choralarni ko‘rish kerak, deb o‘ylaysiz?**

— Rostdan ham, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi juda dolzarb. Boshqacha aytganda, hayot-mamot masalasi. Tadqiqotlar natijasi hayotga ko‘chmasa, fanning ahamiyati qolmaydi.

Prezidentimiz Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mazkur yo‘nalishda qator chora-tadbirlar belgilandi. Xususan, 2025-yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag‘lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish maqsad qilingan. Shuningdek, innovatsion ishlanmalar va startap loyihalarni moliyalashtirish maqsadida xorijiy yetakchi investitsiya kompaniyalari bilan hamkorlikda venchur jamg‘armalari tashkil qilinmoqda.

Olimlar va biznes tuzilmalarining hamkorligini ta’minlash, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini yanada kengaytirish masalasida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligidagi faoliyatim davomida ba’zi chora-tadbirlarni hayotga tatbiq etdik. Xususan, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni qo‘llab-quvvatlash uchun grant dasturini ishga tushirdik. Olimlarimiz yangi texnologiya yoki mahsulotni ishlab chiqqan, lekin uni amalga oshirishga qodir bo‘lmaganida ularni amaliyotda qo‘llash va ishlab chiqarishga qiziqqan tadbirkorni topishga yordam berildi. Shu tariqa 100 ga yaqin ilmiy ishlanmalar tijoratlashtirildi. Ular orasida noyob mahsulotlar bor. Masalan, bakteriofaglar, ya’ni bakteriyalarni yo‘q qiladigan viruslar, ushbu mahsulot antibiotiklarga muqobil. Mazkur bakteriofag-preparatlar farmatsevtika mahsuloti sifatida AQSh sertifikatini oldi. Bajarilgan ishlar samarasida 2019-yilda ilmiy muassasalar va oliy o‘quv yurtlarida ishlanmalarni tijoratlashtirishdan tushgan mablag‘larning umumiy hajmi 43 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 216 milliard so‘mga yetdi.

Taassufki, bu boradagi ishlarimiz hali davlatimiz rahbari qo‘yayotgan talablarga javob bermaydi, rivojlangan mamlakatlardan ancha orqada. Xo‘sh, vaziyatni o‘nglash uchun nima qilish kerak? Avvalo, sohaga bozor mexanizmlari to‘la tatbiq etilishi lozim. Olimlarimiz taraqqiyot uchun muhim bo‘lgan ixtirolarni, ilmiy ishlanmalarni yaratibgina qolmay, ularni sota bilishi ham kerak. Moddiy foyda ko‘rish ehtiyoji tadbirkor e’tiborini tortishiga shubha yo‘q. Albatta, bu jarayon tadqiqotchidan, ixtirochidan yetarli huquqiy bilimlarga, ishbilarmonlik ko‘nikmalariga, ommaviy axborot vositalari bilan ishlash va o‘z mahsulotini bozorda reklama qila olish salohiyatiga ega bo‘lishni talab etadi. Dunyodagi ko‘plab taniqli biznesmenlar dastlab ilmiy tadqiqot, ixtirochilik bilan shug‘ullangan. Masalan, Ford, Morgan, Bil Geyts, Stiv Jobs va boshqa ko‘pgina biznes olamida nom qozongan insonlar shunchaki tadbirkor emas, avvalo, olimlardir. Ular texnika, texnologiya sohasida yaratgan ixtirolarini ishlab chiqarishga muvaffaqiyatli tatbiq eta olgani sababli yirik biznes saltanati asoschisiga aylandi.

Ilm-fan egalari, olimlar va yirik ishlab chiqaruvchi korxona egalari o‘rtasida doimiy hamkorlik bo‘lishi lozim. Bu zanjir uzilsa, ko‘plab ilmiy tadqiqotlar hayotga ko‘chmay qolib ketaveradi. Yurtimizda innovatsion jamg‘armalar, muhandislik laboratoriyalari, texnoparklar tizimining yanada kengaytirilishi ilm-fan yutuqlarining tezroq tijoratlashtirilishiga ko‘mak beradi.

Fanlar akademiyasi ishlab chiqarish muassasalari, tadbirkorlar buyurtmalari asosida institutlarning, olimlarning muayyan tadqiqotlarni olib borishini rag‘batlantirishni ko‘zlayapti. Biz bu ikki soha vakillari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish, do‘stlik rishtalarini bog‘lash maqsadida turli tadbirlarni o‘tkazishni rejalashtirganmiz.

**— Xalqimiz yurtdoshlarimiz orasidan ham Nobel mukofoti sovrindorlari chiqishini orziqib kutadi. Sizningcha, bu orzuning ro‘yobi uchun nima yetishmayapti?**

— Ilm-fan tez natija bermaydi, ushbu sohada dunyoda nom qozonish oson emas. Biz O‘zbekistonda ilm-fanning katta yuksalishini ko‘ryapmiz. O‘tgan yili butun dunyo olimlari ilmiy faoliyatini baholovchi “Elsevier” nashri ma’lumotlariga ko‘ra, o‘zbek olimlari chop etilayotgan ilmiy maqolalari o‘sishi bo‘yicha dunyoning yetakchi o‘ntaligiga kirdi. Bu yurtimizda sohani moliyalashtirish siyosati samarasi, institut va universitetlarning moddiy ta’minoti mustahkamlangani, dunyo olimlari bilan aloqalarning kengaygani, ilmiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyati oshgani tufayli ro‘y bermoqda.

Shu bilan birga, olimlarimiz bor kuch va imkoniyatlarini yuqori sifatli fan bilan shug‘ullanishga sarflashlari kerak. Sohada qo‘lga kiritayotgan natijalarimiz nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda e’tirof etilishi, bashariyat manfaatiga xizmat qilishi lozim. Olimlarimiz marrani yanada baland olsa, ishonamizki, dunyo darajasidagi yutuqlar yaqin orada qo‘lga kiritiladi.

Albatta, ta’lim va ilm-fanga sarmoya kiritishni yanada kengaytirishimiz zarur. Rivojlanish uchun bu yo‘nalishdagi xarajatlarni oshirib, hech bir davlat yutqazmagan. Xitoy, Singapur, Yaponiya kabi mutaraqqiy davlatlar tajribasi buni isbotlaydi. Dunyoda mazkur jarayon yanada jadallashdi. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, 1996-yildan 2016-yilgacha bo‘lgan 20 yil davomida dunyoda yalpi ichki mahsulotga nisbatan ilm-fanga sarflangan mablag‘lar o‘rtacha 2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016-yildan buyon bu ko‘rsatkich qariyb 3 foizga oshgan. Mamlakatlar yangi texnologiyalar yaratishda poyga qilishmoqda. Bu esa mablag‘ talab etadi. Yangi ixtirolarga, ilmiy ishlanmalarga talabni oshiradi.

Biz ham faqat iste’molchi bo‘lib qolmasligimiz shart. Olimlarimiz, ishbilarmonlarimiz texnikalar, texnologiyalar, asbob-uskunalarning yangi avlodini yaratish ustida bosh qotirishi, ular uchun shart-sharoitlar yana mukammal bo‘lishi lozim.

Dunyoda e’tirof etilish, shubhasiz, olimlarning o‘ziga, ularning istak va intilishlariga ham bog‘liq. Tadqiqotchilarimiz jahonning nufuzli ma’lumotlar bazalarida indeksatsiyadan o‘tgan yuqori impakt faktorli jahon jurnallarida maqolalar berib borishi kerak. Hozir “WEB of Science”, “SCOPUS” kabi ma’lumotlar bazasida indeksatsiya etiladigan xalqaro ilmiy jurnallarda chop qilingan maqolalar bo‘yicha O‘zbekistonning yalpi ulushi hali past. Albatta, bu boradagi ko‘rsatkichlarni yaxshilashimiz uchun, avvalo, ularning talabidagi ilmiy ishlarni taqdim etishimiz zarur. Turli sohalardagi yangiliklarimiz, ixtirolarimiz, ilmiy ishlanmalarimiz butun jahonning umumiy yuksalishiga xizmat qilsa, olimlarimiz Nobel mukofoti bilan taqdirlanishiga shubha yo‘q. Bu o‘rinda gap faqat mukofotlanishda emas, asosiysi intilishlarimizning meva berishi, xalqimizni azaliy orzu-maqsadlarimiz ro‘yobi sari yetaklashidir.

**— Bugun Prezidentimiz rahnamoligida yangi O‘zbekistonni, uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Ushbu tarixiy jarayonda Fanlar akademiyasining ishtiroki qanday bo‘lishi kerak?**

— Kelgusida amalga oshiradigan ishlarimizda ana shu savolga salmoqli javob berish zimmamizdagi asosiy vazifalardandir. Bu “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida akademiyaga yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta’minlash bilan kechadi.

Faoliyatimiz ko‘lamini, samaradorligini oshirish uchun institutlar bilan birga kelgusi besh yil uchun reja ishlab chiqamiz. Bu, avvalo, jamiyat, ishlab chiqarish, biznesning muammolari va ehtiyojlarini keng tahlil qilishni, ilm-fanimizning kuchli va kuchsiz tomonlarini, jahon ilm-fani taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini chuqur o‘rganishni talab etadi. Reja ikki komponentni — institutlar shug‘ullanayotgan yo‘nalishlarni yangi bosqichga olib chiqish va yangi zamonaviy ilmiy yo‘nalishlarni ochishni o‘z ichiga oladi.

Yosh kadrlarni qo‘llab-quvvatlash juda muhim. Keyingi yillarda Fanlar akademiyasi tizimida ko‘plab yoshlar faoliyat yuritmoqda, hozirda 784 nafar PhD doktoranti va 85 nafar DSc doktoranti tahsil olmoqda va har yili 100 nafar stajer-tadqiqotchi uchun o‘rin ajratilyapti. Bu ilm-fanga yosh kadrlar kelishini ta’minlaydi. Kelgusida ham yosh olimlar bilan ishlash, xususan, sohadagi ayollarni qo‘llab-quvvatlash asosiy muddaolarimizdan biri bo‘ladi. Bundan tashqari, bizga yosh va g‘ayratli rahbarlar kerak, ularni ham o‘stirishimiz zarur.

Sohada ochiqlik, oshkoralik, shaffoflikni yanada kuchaytirish, OAV bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish faqat ijobiy o‘zgarishlarga turtki beradi. Olimlar tabiatan juda kamtar insonlardir va ular o‘zlarining ishlanmalarini, kashfiyotlarini keng ommaga e’lon qilavermaydi. Shu bois ular yaratayotgan yangiliklarni xalqimizga, yoshlarga yetkazishga katta urg‘u beramiz. Jamoatchilik bilan aloqalarni kengaytirish olimlarning intellektual mulkka bo‘lgan huquqlarini himoya qilish, plagiat va ilmiy g‘oyalarni o‘zlashtirish holatlarini bartaraf etishga ham ko‘maklashadi.

Biz tegishli dasturlarni amalga oshirish orqali ilmiy loyihalarni moliyalashtirish, olimlar va xususiy sektorni umumiy maqsadlar sari rag‘batlantirish mexanizmlarini yaratishni, tadbirkorlik subyektlarining, jumladan, milliy kompaniyalarning ilmiy tadqiqot faoliyatidagi ishtirokini kengaytirishni ko‘zlayapmiz.

Maqsadimiz Prezidentimiz bugun soha oldiga qo‘yayotgan talablarga, xalqimizning azaliy orzu-umidlariga mushtarak: O‘zbekistonda ilm-fanni yuksak bosqichga olib chiqish, ilmiy yondashuvlar jamiyat, iqtisodiyot tarmoqlari taraqqiyot yo‘lini ko‘rsatuvchi lokomotiv bo‘lishini ta’minlash va Vatanimizni jahon ilm-fanining bir bo‘lagiga aylantirishga erishishdir.

**Dilshod KARIMOV**
**(“Xalq so‘zi”) suhbatlashdi.**

**O‘zbekiston Badiiy akademiyasining “Akademiya” galereyasida rus rassomlarining Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasi fondida saqlanayotgan asarlaridan iborat badiiy ko‘rgazma tashkil etildi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

ISSN 2010-8788

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e’lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Shernazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 01.00 Topshirildi — 02.30 1 2 3 4 5 6